



BMTning, Xalqaro mehnat tashkilotining xotin-qizlarga nisbatan konvensiyalari

Norqulova Umida Xo'razovna

Ichki ishlar vazirligi Samarqand akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ayollar mehnatini qonun yo'li bilan tartibga solish ayollar va erkaklarning teng huquqliligi prinsipiga asoslanadi. Shu bilan birga, turmush voqyeligida amalda jinslarning teng emasligini, ayol ayni bir vaqtning o'zida ikkita jamoatchilik funksiyasini: kasb va onalik vazifalarini bajarishini hisobga olib jamiyat mutlaqo haqli ravishda ayolning onalik bilan bog'liq maxsus huquqlarini belgilab qo'ygan. Ayol erkak kishiga berilgan huquqlarga ega bo'lish bilan bir qatorda onalik bilan bog'liq o'ziga xos biologik xususiyatlari tufayli yana qo'shimcha ravishda mehnat, oila, nafaqaga oid hamda ona vazifasini bajarish bilan bog'liq boshqa huquqlarga ham ega bo'lgandagina ayollar teng huquqliligiga erishiladi.*

Kalit so'zlar: *Oila, teng huquqlilik, BMT, gender ekspertiza XMT, konvensiya, deklaratsiya.*

Xalqaro Mehnat tashkilotining keyingi ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda xotin-qizlarning 45 foizga yaqini "iqtisodiy faol"lar qatoriga kiradi, ya'ni ishchi kuchi hisoblanadi, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Karib havzasi, Janubiy-Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlarida bunday ishchi kuchi ayollarning sal kam yarmini tashkil etadi. Dunyoda 30 foizdan ziyod oila o'z daromadlarining asosiy manbai bo'lgan ayollarning ish haqi hisobiga yashaydi, Yevropada 59 foiz oilada ayollarning daromadlari byudjetning yarmini yoki undan ko'prog'ini tashkil etadi. Ishga joylashtirish va ishdan bo'shatish chog'ida gender kamsitishlari, xotin-qizlarning bir xil qiymatdagi mehnat uchun erkaklar bilan teng va adolatli mehnat haqi olish huquqi, ayollarning reproduktiv funksiyalarini hisobga olgan holda qulay mehnat sharoitlari yaratish, shuningdek ularning kasb va oilaviy



majburiyatlarini muvaffaqiyatli qo'shib olib borishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash kabi qator muammolar butun dunyoda doimiy ravishda dolzarb bo'lib qolmoqda. XX asrning birinchi yarmida davlatlarning mehnat qilish huquqini tan olishlari shundan keyin insonning mehnat sohasidagi huquqlari tizimi xalqaro miqyosda va davlatlar ichida huquqiy jihatdan tartibga solish yo'li bilan e'tirof etilishi va belgilab qo'yilishiga olib keldi. Bu jarayon mehnat sohasidagi davlat siyosatining ajralmas va asosiy qismiga aylanib bormoqda. Mehnat sohasidagi hozirgi zamon siyosati – bu davlatlar, ijtimoiy sheriklar va fuqarolik jamiyati muassasalarining mehnat munosabatlari hamda u bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlarning maqsadi, vazifalari, prinsiplari, asosiy yo'nalishlari, ustuvorliklari, ularni rivojlantirish shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi faoliyatidir. Xalqaro miqyosda va davlat ichidagi darajada insonning mehnat sohasidagi huquqlari uning asosiy huquqlari qatoriga kiritilgan bo'lib, bu ushbu huquqlarning davlatlar hamda ijtimoiy sheriklarning mehnatni tartibga solish borasidagi asosiy konstitusiyaviy va xalqaro-huquqiy majburiyati sifatida e'tirof etilishi, ularga rioya qilinishi va ularning himoya qilinishini bildiradi. Xalqaro hujjatlarda eng maqbul va maqsadga muvofiq qoidalar ko'rsatilgan bo'lib, ijtimoiy mehnat munosabatlarning maqsadi, prinsiplari va normalari ham unga qarab belgilanishi lozim. Ana shunday qoidalarning muayyan tizimi shakllandi, iyerarxiyasi belgilandi, mehnat siyosatidagi asosiy qoidalar, asos bo'luvchi prinsiplarga ustuvor yondashuvlar ma'lum qilindi. Kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik prinsipi xalqaro mehnat huquqida eng asosiy prinsiplardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning barcha darajalarida imperativ (qat'iy talab) tusiga egadir. Uning mazmuni turli xalqaro huquqiy manbalarda ifodalangan normalar tizimini tashkil etadi. U kamsitishlarga qarshi siyosatni olib borishda mo'ljal bo'lib va ayni vaqtda milliy qonun hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda hamda mehnat sohasida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka nisbatan uni qo'llanish amaliyotida namuna bo'lib xizmat qiladi. Bu normalarning butun yig'indisi davlatlar va ijtimoiy sheriklar



mehnatni tashkil etish hamda uni boshqarishda, shu jumladan mehnat siyosatidagi gender asoslariga amal qilishlari lozim bo'lgan xalqaro-huquqiy andozani tashkil etadi. Insonning mehnat sohasidagi umum e'tirof etilgan asosiy prinsiplari va asosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish – munosib mehnat qilishning zarur shartidir. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada insonparvarlashtirish va ularni gender ekspertizasidan o'tkazish jarayoni inson huquqlari ustuvorligini ana shunday alohida ta'kidlash bilan kechmog'i zarur. Ayollar va qizlarning huquqlari insonning barcha umumiy huquqlarining ajralmas va bo'linmas qismi hisoblanadi. Milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda xotin-qizlarning siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda to'liq va teng ishtiroki, shuningdek jinsiy belgisiga ko'ra kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish – xalqaro hamjamiyatning birinchi navbatdagi maqsadlaridandir. Xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish uchun insonning barcha huquqlarini va barcha ayollarning asosiy erkinliklarini to'liq amalga oshirish o'ta muhim ahamiyatga egadir. 1995 yilgi Pekin Sa'y-harakatlar platformasini milliy qonun hujjatlari orqali ham, taraqqiyot sohasidagi strategiya, siyosat, dasturlar va ustuvorliklarni shakllantirish orqali ham amalga oshirish har bir davlatning suveren majburiyatidir. Xalqaro Mehnat tashkiloti oilaviy majburiyatlari bor bo'lgan ayollar hamda mehnatkashlar mehnatini qo'llanish normativlari va shartlarini belgilovchi qator konvensiyalar qabul qilgan. Ayollarning mehnat huquqlari masalasi Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasida (23-modda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktida (6- modda), CEDAW Konvensiyasida, Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon konferensiyasining yakuniy hujjatlarida (Vena, 1993 yil), Ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini yo'lidagi Umumjahon uchrashuvida (Kopengagen, 1995 yil) va Ayollarning ahvoriga doir Umumjahon konferensiyasida ham (Pekin, 1995 yil) ko'tarilgan. 1996 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ish qidirib ko'chib yuruvchi ayollarga qarshi zo'ravonlik" to'g'risida 51/65-raqamli rezolyusiya qabul qilingan bo'lib, u BMT a'zosi bo'lgan mamlakatlarning hukumatlari zimmasiga ish qidirib ko'chib yuruvchi



ayollarning himoya qilinishini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Xalqaro standartlarda onalikni muhofaza qilishga doir davlat choratabdirlarining kamsituvchi emasligi belgilangan (BMTning Kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi, 42-modda), shundan kelib chiqadiki, onalik va bolalikni himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy huquqlar sohasidagi O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari hozirda xalqaro huquq talablariga muvofiqdir. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida xotinqizlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy sohada ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash borasida katta va mashaqqatli ishlar amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi, hususan mehnat munosabatlari sohasidagi imkoniyatlarini belgilovchi qator huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bu hujjatlarda barcha fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlashning umumiy qoidalari va standartlari ham, xotin-qizlarning mehnat huquqlariga taalluqli maxsus qoidalar va tartib-taomillar ham aks etgan. Davlatning erkaklar va ayollarning huquqlari va imkoniyatlari teng bo'lishini ta'minlashga doir qonun chiqaruvchilik faoliyatini tahlil qilish zarurati ayollarning huquqlari ham inson umumiy huquqlarining ajralmas qismi ekanligi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida jinsidan qat'i nazar inson va fuqaroning huquq va erkinliklari tengligi e'tirof etiladi hamda kafolatlanadi, 18-moddada bunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar". Aksariyat xalqaro normalar kamsitmaslik prinsipini e'tirof etishi bilan bir qatorda, Xalqaro Mehnat tashkilotining ayollarga bag'ishlangan bir qator maxsus konvensiyalari va tavsiyalari mavjud. Xalqaro Mehnat tashkiloti BMTga qadar ham ancha ilgari ayollar mehnatining o'ziga xos muammolarini ishlab chiqa boshlagan. Bunda XMTning mehnat sharoitlariga oid normalarni ijod qilish faoliyati quyidagi 2 ta prinsipga asoslanadi: 1) o'qish, ish bilan bandlik, ishda xizmat pog'onalarida



ko'tarilish, tashkilotlarda va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishda imkoniyatlar tengligini, shuningdek ish haqi, nafaqa, ijtimoiy himoya va mehnat faoliyati munosabati bilan ta'minot tengligini kafolatlash; 2) mehnatkash xotin-qizlarni birinchi navbatda onalik uchun xavf tug'diruvchi mehnat sharoitlaridan himoya qilish. XMTning quyidagi uchta asosiy Konvensiyasi ana shu masalalarga bag'ishlangan: - 1951 yilgi Teng rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiya (№ 100) va unga hamroh bo'lgan 1951 yilgi Teng rag'batlantirish to'g'risidagi tavsiyalar (№ 90) erkaklar va ayollarni bir xil qiymatdagi mehnat uchun teng rag'batlantirishni nazarda tutadi; - 1958 yilgi Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiya (№ 111) va 111-sonli Tavsiyalar erkaklar va ayollarning shu sohadagi tengligini, shuningdek boshqa belgilariga ko'ra kamsitishlarni nazarda tutadi. - 1981 yilgi Oilaviy majburiyatlari bo'lgan mehnatkashlar to'g'risidagi konvensiya (№156) va 1981 yilgi 165-sonli Tavsiyalar oilaviy majburiyatlari bo'lgan erkak va ayol mehnatkashlar uchun teng imkoniyatlar va teng muomalani nazarda tutadi. XMTning bir qator konvensiyalari zararli mehnat sharoitida ishlayotgan ayollar uchun maxsus mehnat sharoitlari va maxsus himoyani yaratishga qaratilgandir. Boshqa konvensiyalar homiladorlik va tug'ish bo'yicha ijtimoiy ta'minotni nazarda tutadi. Bularga 1919 yilgi Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyani (№ 3), 1952 yilgi Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiyani (№ 103), 1952 yilgi Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 95-sonli Tavsiyani, 1921 yilgi Qishloq xo'jaligida onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 12-sonli Tavsiyani misol qilib keltirish mumkin. XMT kamsitishlarning quyidagi uchta jihati bilan tavsiflanadigan eng yaqqol ko'rinishlariga asosiy e'tiborni qaratadi: birinchidan, bu ayrim kasblarning u yoki bu jins uchun eng "ma'qul keladigan" deb hisoblanishida namoyon bo'ladigan mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlardir; ikkinchidan, erkaklar va ayollarning mashg'ulotlar sohasida ko'p jihatdan irqiy kamsitish (segregasiya) natijasi bo'lgan mehnatiga xaq to'lashdagi farq, biroq bu ham bir xil qiymatdagi mehnat uchun erkaklar va ayollarni teng darajada rag'batlantirmaslikdan iborat; uchinchidan, bu kasb faoliyati



bilan band bo'lgan, shuningdek amalda oila va ro'zg'or majburiyatlarini yolg'iz bajaruvchi ayollarning “ikki baravarlik ish kuni”. Bu jinslar o'rtasida ish ko'lamlarini taqsimlashda notenglikka olib keladi, shuningdek ayollarning mehnat bozorida erkaklar bilan teng raqobat qilish imkoniyatini cheklaydi. Keyingi ikki o'n yillik mobaynida BMT xotin-qizlar muammolariga bag'ishlangan konferensiyalar o'tkazib kelmoqda. Ularda ayollarning jamiyatdagi ahvoliga doir umumiy masalalar ko'rib chiqilayotgan bo'lsada, mehnatkash ayollar muammolariga ham katta e'tibor qaratilayapti. Masalan, BMTning 1980 yilda Kopengagenda bo'lib o'tgan Ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha oliy darajadagi Umumjahon uchrashuvida jahonning qariyb barcha davlatlari yoki hukumatlari boshliqlari tomonidan imzolangan Asosiy hujjatda (Deklarasiyalarda hamda Sa'y-harakatlar dasturida) “5-sonli majburiyat” aks etgan, unda bunday deyiladi: “Inson qadr-qimmatini, erkaklar va ayollarning teng huquqliligini hurmat qilish, ayollarning jamiyatdagi va oiladagi rolini kuchaytirish jarayonini rag'batlantirish”. Barcha davlatlar 2000 yilga qadar BMTning Xotin-qizlar notengligining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishga da'vat etildi. 1995 yilda Pekinda BMT a'zosi bo'lgan davlatlar va hukumatlar rahbarlarining ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi, unda ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha ikkita eng muhim hujjat – Deklaratsiya hamda Sa'yharakatlar dasturi qabul qilindi, ularda ish bilan to'liq ta'minlanish, xizmat pog'onalaridan yuqorilash borasida ayollarning teng huquqliligi prinsiplari, ayollarning iqtisodiy mustaqilliligiga, shu jumladan ularning iqtisodiy resurslar – yer, kreditlar, fan va texnika, kasb tayyorgarligi, axborot hamda kommunikasiyalardan to'liq foydalanishlariga ko'maklashish va boshqalar qayd etilgan. Pekin Konferensiyasi qarorlarini ro'yobga chiqarish uchun XMT “ayollar uchun ko'proq ish o'rinlari va eng yaxshi sifat nomli Umumjahon dasturini tuzdi”. XMT tashabbusi bilan 1997 yilda o'tkazilgan Xalqaro kengash mehnatkash xotin-qizlarga nisbatan eski andozalarni bartaraf etish masalalariga bag'ishlandi. Kengashda hukumatlar, kasaba uyushmalari vakillari ham, ish beruvchilar ham ishtirok etdilar, bu ayollarni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish



muammolarini, shuningdek ayolning ish joyida unga to'la huquqli rahbar bo'lishi uchun xalaqit berayotgan ko'plab xurofotlarni yengib o'tish muammolarini muhokama qilishda uch tomonlama muloqotni yo'lga qo'yish imkonini berdi. Kengashda qabul qilingan rezolyusiyada har bir mamlakatda ushbu muammo yuzasidan uch tomonlama asosda maslahatlashuvlar o'tkazishga va XMTning tegishli hujjatlarini ratifikatsiya qilishga da'vat aks etdi. XMTning o'ziga esa "davlat va xususiy sektorlarda rahbarlik lavozimlaridagi erkaklar va ayollarning mavqeyelari to'g'risida tekshirishlarni amalga oshirish", erkaklar va ayollarning tengligini rivojlantirish borasida tadbirkorlar tashkilotlari va mehnatkashlar bilan hamkorlik qilish, ushbu masaladagi o'sishni kuzatadigan hamda unga baho beradigan "kuzatish punktini" tashkil etish, "imkoniyatlar tengligiga chinakamiga ko'maklashuvchi tizimni amalga oshirishda o'zini ko'rsatgan tashkilotlarning eng muqobil amaliyotini nishonlaydigan milliy darajadagi mukofotlar berilishini nazorat qilish" tavsiya etildi. Bu mavzuni davom ettirib XMT 1998 yilning yanvar oyida "Gender tayyorgarligini (ya'ni turli jinslarga yondashuvlardagi farqni hisobga olgan holda) tashkil etishning asosiy yo'nalishlari"ni ishlab chiqdi.

RAHBARIY ADABIYOTLAR

Karimov I.A. Yuksakma'naviyat – yengilmaskuch. – T., «Ma'naviyat», 2008 – 176 b.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., «O'zbekiston», 2011. – 440 b.

Karimov I.A. Onayurtimiz baxtli qiboliva buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T., «O'zbekiston», 2015. – 302 b.

Karimov I.A. Ozodlik xavosidanto'yib nafas olgan xalqo'zyo'lidan xech qachon qaytmaydi. – T., «O'zbekiston», 2016. – 28 b.



Karimov I.A. Hayotsinovlaridatoblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani e
gallashga qodir. – T., «O'zbekiston», 2016. – 28 b.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin vafarovon,
demokratik O'zbekiston davlati ni birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2016. – 56 b.

Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –
yurt taraqqiyot va xalq farovonligining garovi. – T., «O'zbekiston», 2017. – 48 b.

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -
har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., «O'zbekiston», 2017. – 104 b.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
– T., «O'zbekiston», 2017. – 488 b.

ASOSIY ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016. – 76 b.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. Rasmiy nashr.
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent: Adolat, 2015.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston
Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent : Adolat, 2015.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston
Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent : Adolat, 2015.

Karaxodjayeva D.M. va boshq. Fuqarolik va oila huquqi. Kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv qo'llanma. T.: "Ilm ziyo", 2013.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

Raxmonqulov X.R., Oqyulov O.O. "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga
Sharh 1 - jild". Toshkent "VYEKTOR - PRYeSS" 2010 yil.



Zokirov I.B., Husanov O.T., Baratov M.H., Imomov N.F. Fuqarolik huquqi (Umumiy qism) Toshkent - "Ilm Ziyo" - 2006 yil.

O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonunga sharhlar. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrirlar: Rahmonqulov H.A., Abdusalomov M.I. Toshkent - Adolat 1994 yil 128 b.

Oqyulov O. Intellektual mulk obyektlari bilan savdo - sotiqni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. (Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini huquqiy ta'minlash muammolari) T - TDYuI - 2004 yil.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

<http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)

<http://lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

<http://eduportal.uz> (Multimediya umumta'lim dasturlarni rivojlantirish markazi)

<http://www.ima.uz> (Intellektual mulk agentligi)

<http://www.academy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)

<http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)

<http://www.nuu.uz> (Mirzo Ulug'bek nomidagi Uzbekiston milliy Universiteti)

<http://www.tsil.uz> (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti)